

---

## 39 NAFAR XOTIN-QIZLARGA SERTIFIKATLAR TOPSHIRILDI

Sertifikatlarni Kimyo va farmasevtika sanoati xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Shavkat Tairov hamda tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Umidaxon Marasulovalar topshirdilar.

O'quv kurslariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 145-sonli qaroriga ko'ra tashkillangan "Ayollar daftari" ro'yxatida turgan, ishsizlik toifasida bo'lgan ayollar jalb etilgan.

Sertifikat olgan "Farog'at" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Yulduzxon Mirzayeva, Odina Maripova hamda Sharofatxon Xalilovalar imtiyozlik kredit egalari bo'ldilar. Ayrimlariga subsidiya asosida tikuv mashinalari topshirildi.

Tadbir ishtirokchilari imtiyozli kreditlardan foydalanib, o'zlarining kichik bizneslarini boshlash haqida fikrlashdilar.

2023-06-24 16:02:19